

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O’QUV FAOLIYATINI
SHAKLLANTIRISH, DIQQATINI JAMLASH VA MAKTABGA TAYYORLASH
BOSQICHLARI**

*Turg’unboyeva Gulirano Iqboljon qizi
Farg’ona viloyati Bag’dod tumani MMTB ga
qarashli 33-DMTT psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda o’quv faoliyatini tashkil etishdagi samarali usullar, diqqatini jamlashda psixalogik qarashlar va turli xil mashg’ulotlar olib borish va maktabga tayyorgalik bosqichi haqida bilib olasiz.

Kalit so’zlar: sistematisk o’qish, dastur bo’yicha, o’z dasturi, saviya darajasi, diqqat, Intelektual, Irodaviy va Ijtimoiy tayyorgarlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o’quv faoliyati shakllanishining dastlabki xususiyatlari. Hayotning dastlabki uch yilda bola ota-onasi yoki boshqa kishilar masalan, tarbiyachi dasturi bilan emas, balki go’yoki o’zining dasturi bo’yicha o’qiydi. Bu davrda bolaning bilim va ko’nikmalarini o’zlashtirishi alohida muhlatiga talablar qo’yilmaydi. Ilk bolalik davrida tarbiya dasturi hali sub’ektiv tarzda bola uchun mayjud bo’lmaydi. Sistematisk o’qishga tayyor bo’lgunga qadar u tayyorlov bosqichini bosib o’tadi. Bu bosqichda chetdagi boshqa kishilarning bolaga nisbatan yangi talablari asta-sekin uning “o’z dasturiga” aylanishi lozim. Bog’cha yosh davrining oxirlariga boribgina, bola kattalar tomonidan ishlab chiqilgan “dastur bo’yicha” o’qiy boshlaydi va maktab talablariga asta amal qila boshlaydi. L.S.Vigotskiyning fikri bo’yicha bog’cha yosh davri ta’lim dasturi:

bolani maktab dasturiga yaqinlashtirishi, uning bilim doirasini kengaytirishi, predmetli ta’limga taylorlashi;

bolaning o’z dasturi bo’lishi hamda uning qiziqishi va ehtiyojlariga javob berishi lozim.

Shuningdek, L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida, ta’limning yetakchi roli haqidagi qonunni ilgari surdi va aniq ifodaladi: ta’lim rivojlanishdan oldinda boradi va o’zining orqasidan uni yetaklaydi.

A.P.Usova bog’cha yosh davridagi bolalar tomonidan o’quv faoliyati o’zlashtirilganligining aniq belgilarni ko’rsatadi, o’zlashtirishning uch saviyasi ajratilib, ular o’quv faoliyati rivojlanganligining turli darajalarini xarakterlaydi.

1-darajasi. Bilish faoliyati barcha jarayonlarining mahsuldarligi va maqsadga qaratilganligi bilan o’qishga nisbatan faol va qiziquvchan munosabat, o’zining harakatlarini nazorat qilish va erishilgan natijalarini baholash qobiliyatiga egaligi bilan farqlanadi. o’zlashtirilganlar asosida bolalar amaliy va aqliy faoliyatida qurbi yetadigan vazifalarni yechaladi.

2-darajasi — kuchsizroq. O’quv faoliyatini egallashning barcha ko’rsatkichlari yetarli rivojlanmagan. Lekin shu bilan birga bolalar ta’limidagi ba’zi bir ehtimoliy og’ishishlar ham bundan mustasno emas.

3-darajasi. Mashg’ulotlarda tashqi intizomning o’quv faoliyati shakllanishidagi boshlang’ich davr.

Bu uch darajada bolalarning o’quv faoliyatini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari berib o’tilgan.

Bolalarni diqqatini barqarorlashtirish usullari va vositalari. Bog’cha yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog’chadagi sharoitgagina emas, balki ko’p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog’liqdir. Shuning uchun bolalarning diqqati bir tekisda va bir darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo’lmasligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborganligi tufayli o’zlarining xatti-harakatlarini, hulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar.

Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o’tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga qulq solmaydigan bo’ladi. Bolalar diqqatining ko’lami katta odamlarikiga nisbatan hali ham juda tor bo’ladi. Ularning diqqati tarqoq holda shakllanadi. Voqeilikni shunchaki qiziqishlari va o’z ichki dunyosiga binoan aks ettiradi.

Bog’cha yoshidagi bolalarning diqqati ko’pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog’liqligi sababli konsentrlashgan, ya’ni bir narsaga qaratilgan bo’ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bolalarda diqqatning bo’luvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo’ladi.

Shunday qilib, bolaning bog’chagacha va bog’cha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ortiqroq rivojlanadi. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti mактабда та’лим jarayonida amalga oshiriladi.

Maktabgacha intelektual tayyoragarlik. Irodaviy va ijtimoiy tayyoragarlik. Maktabga borish bolalar hayotida juda katta voqeadir. Maktab bolalarga yangi hayotga qadam qo’yish, ya’ni siyosiy hayotiga o’zgarishlar olib keladi. Endilikda bolalar asosiy vazifasi o’qish bo’ladi. 6-7 yoshli bolalardan yangi faoliyat bo’lmish o’qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyat talab etadi. Bolalarni maktabga o’tgandan so’ng duch keladigan ana shundan ziddiyatlarga duch kelmasligi uchun astoydil ularni tayyorlash kerak bo’ladi. Ayrim bolalarda maktabga borgach tez ko’nikib keta olmaydi. O’qish faoliyatida ularga nimadir yetishmayotganday tuyuladi. Yetti yosh go’daklikning tugash davri bo’lib, shu davrdan boshlab bolalar o’z-o’zini anglay boshlaydilar.

Maktab ta’limiga avval psixologik jixatdan tayyorlanadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo’ladi. Bola diqqatning xususiyatlari roli va suyujeti o’yinlarda, rasm chizish va qurish - yasash mashg’ulotlarida, loy xamda plastilindan o’yinchoqlar tayyorlashda, o’zgalar nutqini idrok kilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, xikoya tinglash va tuzishda ko’rinadi. Bola o’z diqqatini muayyan ob’ektga to’plashga intiladi

Bola maktab ta’limida psixologik tayyorlanishning sub’ektiv tomoni xam mavjuddir. Uning muloqatga kirishish istagi mazkur tayyoragarlik bilan uzviy bog’liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. -T.: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006. 160 b.
2. Z.T.Nishanova, G.Flalimova, A.G.Turg‘unboyeva M.X.Asranboeva “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi. Toshkent-2017, Yusuf Xos Hojib 103.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi A.Qodiriy Nomli JDPI Pedagogika Fakulteti Psixologiya Kafedrasi "BOLALAR PSIXIALOGIYASI" fanidan ma'ruzalar matni . JIZZAX 2008-yil